

NOVERBAL MULOQOTDA DAVLAT BAYROQLARIDAGI RANG-TASVIRLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

*Ikromov Shoxruxbek Dilshodjon o‘g‘li,
Andijon davlat chet tillari instituti
stajor-tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Muloqot til vositasi bilan verbal yoki tilning ishtirokisiz noverbal amalga oshirilishi mumkin. Verbal muloqot jarayonida nutqiy muloqot (so‘z) muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: muloqot, nutq, kommunikatsiya, verbal, noverbal.

Abstract: Communication can be done verbally with the help of language or non-verbally without the participation of language. Speech plays an important role in the process of verbal communication.

Key words: communication, speech, communication, verbal, non-verbal.

Muloqot til vositasi bilan verbal yoki tilning ishtirokisiz noverbal amalga oshirilishi mumkin. Verbal muloqot jarayonida nutqiy muloqot (so‘z) muhim o‘rin tutadi. Muomala faqat kishilar o‘rtasidagi axborot almashilgandagina emas, balki kishilarning his hayajonlarini ham qamrab oladi. Muomalaning bu tomoni noverbal muloqotni tashkil etadi. Mazkur muloqot tilshunoslikda Paralingvistika fanining o‘rganish obyekti hisoblanadi. Muloqotda mimika, ovoz ohangi, sukut, hissiyotni ifodalovchi holatlar, kulgu, yig‘i, ko‘z harakatlari, yuz ifodalari va boshqa noverbal muloqotni ifodalovchi vositalarning barchasi kommunikantlar o‘rtasidagi axborot almashinuvini tashkil etib, ular muloqot jarayonida axborotni yanada kuchaytiradi va uni to‘ldirib keladi hamda tinglovchiga axborotni ifodalashda ta’sir kuchiga ega.

Inson noverbal muloqoti jarayonida turli imo-ishora va xatti-harakatlardan tashqari semiotik birliklar, shu jumladan, sirlı raqamlar, rang tasvirlari, musiqiy notalar kabi kodlangan belgilardan ham foydalanishi mumkin. O‘zbek olimi M.Kurbanov rang tasvir va musiqa ohanglariga ko‘chirish (kodlash) orqali yetkazib berish jarayonlarini verbal so‘zlarga qayta o‘girish (dekodlash) holatlari ham mavjud. Ularni umumiydushgan holatdalarini san‘at tili deb atashni taklif qilgan.

Muloqotda mimika, kulgu, ovoz ohanglari, rang-tasvir va boshqalardan iborat noverbal vositalardan keng foydalanish jarayonlari Yevropa tilshunosligi namoyondalari: G.V.Kolshanskiy, O.Savajo, Y.A.Zemskaya, R.Yakobson, N.I.Jinkin, K.Blansh, Benvenist, R.Bart kabi olimlar tomonidan ham tadqiq etilgan bo‘lib, Amerika va nemis tilshunoslarining bu boradagi izlanishlari diqqatga sazovor. Ular orasidan F.Poyatos, R.L.Birdwhistell, D.Efron, P.Ekman, V.Friesen, E.Hall, M.R.Key, G.L.Trager kabi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari jamiyatga va insonlar o‘rasidagi munosabatga ta’siri masalalariga bag‘ishlanadi hamda paralingvistika fanini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi.

Zamonaviy tilshunoslikda noverbal muloqotni ifodalovchi paralingvistik vositalarning 18 ta guruhga ajratish mumkinligi ko‘rsatib berilgan:

1. Kinesika (imo-ishora harakatlari)
2. Vokalika (ovozning akustik harakatlari)
3. Tabiiy xususiyat (gavda qismi shakli soch rangi)
4. Gaptika (tana qismiga teginish)
5. Proksemika (joylashuv manzili)
6. Xronomika (muloqot vaqti)
7. Okuleksika (ko‘z harakatlari)
8. Artefakt (kiyinish, bezanish va kosmetika).
9. Estetika (musiqa, rang, rasm, va boshqa sanat)
10. Gastika (ta‘m bilish muloqoti belgilari)

11. Olfaktika (hid bilish uning muloqoti)
12. Sistemologiya (insonni o‘rab turgan tevaraak atrof)
13. Grafika (harf raqam emblem, shartli belgi va boshqalar)
14. Mimika (yuzdagi jilmayish va boshqa harakatlar)
15. Ekstralingvistika (yig‘i kulgu, yo‘tal, xo‘rsinish)
16. Tovush belgilari (hmm, eee, uxxx)
17. Pauza (pauza qilish, muloqotdan saqlanish)
18. Lokomatsiya (oqlanish, bazor qadam bosish).

Noverbal muloqotni ifodalovchi vositalar orasida rang-tasvirlar orqali yetkaziladigan ma’lumotlarning o‘rni juda muhim sanaladi. Aynan rang-tasvir orqali yetkaziladigan ma’lumotlarning eng ko‘p tarqalgan ko‘rinishini davlat ramzlarida ko‘rish mumkin ekan. Binobarin, davlat bayroqlarini qabul qilishda va unga rang tanlash, xususan, muayyan ranglarni belgilashda milliy madaniyat, ijtimoiy-siyosiy va tarixiy an‘analarga alohida urg‘u beriladi. tadqiqot natijalariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab bayroqlarda ishlatilgan ranglar orasida qizil rang yetakchilik qilarkan. Keyingi o‘rinlarni oq, ko‘k va yashil ranglarni egallashi ilmiy isbotlangan. Mazkur ranglarning har biri o‘z ma’nosiga ega bo‘lib, ular kommunikantlarga noverbal muloqotning vositalari bo‘lib xizmat qiladi.

Rang-tasvir bilan bog‘liq olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, rang-tasvirdagi oq rangning 43 foizi poklikni, tozalikni anglatadi, ko‘k rang 48 foizda dengizni, musaffolikni; yashil rang 53 foizda tabiatni, barhayotni; sariq rang 35 foizda boylikni hamda qora rang 41 foizda salbiy mazmuni ifodalarkan. Qizil rang esa asosan asrlar davomida millatning to‘kilgan qoni ramzi sifatida qaraladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘idagi moviy rang kuch-qudratni, tinchlik va barqarorlikni; oq rang poklik, beg‘uborlikni; yashil rang esa, yasharish va yangilanish ramzi, shuning barobarida ona tabiatimiz, asriy qadriyatlarimiz, iymon-e‘tiqodimiz timsoli hamda qizil chiziqlar tomirimizdagi ajdodlar qoni – mangulik nishonasi hisoblanadi.

Olib borgan kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, dunyo davlatlarining bayroqlaridagi ranglarni quyidagi guruhlariga ham bo‘lish mumkin: panafrika ranglar, panarab ranglar va panslav ranglar. Shunga qaramasdan, bunday guruhga kirmaydigan ranglar ham mavjud. Masalan, Fransiya davlatining bayrog‘idagi ranglar respublika va monarxiya ranglari qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Shu kabi holatni AQSH bayrog‘idagi har bir rangli chiziqlar davlat tashkil tilgandagi dastlabki shtatlar sonini ifodalashda ham ko‘rish mumkin.

Yuqorida tilga olingan panafrika guruhiga – qizil, sariq va yashil ranglarni kiritisa bo‘ladi. Masalan, Afrikada joylashgan ko‘plab davlatlarning bayroqlari aynan shu uch rangdan iborat bo‘lsa, ushbu ranglardan ilk marotaba Gana davlati foydalangan.

XX asr boshida, aniqrog‘i, I-Jahon urushidan so‘ng, Usmon imperiyasi tarkibidan ajralib chiqqan arab davlatlarida orasida panarabizm kuchayib ketdi. Panarab ranglar ham ayni shu davrda yuzaga keldi. Bu ranglarga oq, qora, qizil va yashil ranglarni kiritish mumkin. Aslida bu ranglarning ham o‘z tarixi bor, albatta. Islomiy hisoblangan davlatlarning bayroqlarida oq yoki qora ranglar ishlatilgan. O‘z navbatida, Umaviylar sulolasi oq bayroqdan, Abbosiylar qora bayroqdan foydalangan bo‘lsa, keyinchalik Fotimiylar yashil bayroqni ishlatgan.

Bugungi kunda tashkil etilgan arab davlatlarining aksariyatida ushbu to‘rtta rangni uchratish mumkin. Arab ligasiga kiruvchi 22 davlatdan 10 tasida ushbu ranglarni to‘liq ko‘rish mumkin, qolganlari esa eng kamida ushbu ranglardan birini o‘z bayroqlarida ishlatgan. Kuzatishlarimizga ko‘ra, bugungi kunda arab davlatlari bayroqlarida uchratadigan uch xil rangdagi chiziq va qizil uchburchakli bayroq 1916-1918 yillardagi Usmon imperiyasiga qarshi qo‘zg‘alonlar paytida ishlab chiqilgan va inqilob bayrog‘iga aylangan ramzdir.

Panslav rangli bayroqlarga esa slavyan xalqlaridan iborat davlatlarning bayroqlarini kiritish mumkin. Bu ranglarga Qadimgi Rossiya bayrog‘i asos qilib olingan. Ushbu bayroqdagi uch xil rang: qizil, oq va ko‘k – deyarli barcha slavyan davlatlari bayroqlarida uchraydi. Ushbu uch

rangning eng ko‘p tarqalgan izohiga ko‘ra uch xil rang – uchta yirik slavyan guruhi: oq rang belaruslarni, ko‘k rang ukrainlarni va qizil rang esa ruslarni anglatadi.

Ma’lumki, davlat bayrog‘i to‘rt xil rangdan iborat. Shuningdek, yarim oy va o‘n ikkita besh qirrali yulduz ham bayroqqa tushirilgan. Ko‘k yoki moviy rang musaffo osmon, shuningdek, Amir Temur saltanati bayrog‘i rangi hisoblanadi. Oq rang poklik, omad rangi hisoblanadi. Yashil rang esa tabiat, tiriklik ramzi hisoblanadi. Qizil chiziqlar esa tomirlarda oqayotgan qon hamda vatan ozodligi yo‘lida jon berganlar qonining ramzi hisoblanadi. Yangi chiqqan oy davlat mustaqilligining ramzi bo‘lsa, o‘n ikki yulduz esa qadim tarixdagi o‘n ikki oyga ishora.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uz24.uz/uz/articles/flag_evolution
2. Kolshanskiy G.V. “Paralingvistika”/ Lenand; 2006 –100-b.
3. Е. Мельникова. “Лингвосемиотические и лингвопрагматические средства моделирования мультимодальности в лингвистическом тексте” – 294-297-b.
4. Kurbanov M.A. “Muloqotda noverbal vositalarning o‘rni va ahamiyati” – 147-150-bb.
5. Kurbanov M.A. “Imo-ishora muloqotida milliylikni ifodalash” Monografiya.